

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING YOZMA VA OG‘ZAKI SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI

Guliston Davlat Universiteti
Psixologiya va iltimoiy fanlar fakulteti
3-bosqich talabasi
Rajabova Munisa Aminboy qizi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf darslariga qo‘yilgan talablar, shuningdek, darsda qo‘llaniladigan interfaol metodlar xususida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: islohot, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Ven diagrammasi”, “Guruhlar bilan ishlash”, “6x6x6”.

Bugun ta’lim tizimida hayotga tadbiq etilayotgan islohatlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlарimizning yurt ravnaqi uchun fidoiy, izlanuvchan bo‘lib yetishmog‘iga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta’lim uzlucksiz ta’limning murakkab, o‘ziga xos, shu bilan birga, mustaqil va majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim DTS ta’lim mazmuni negizini o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini hamda o‘quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni o‘zida ifodalaydi.

Ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar tufayli darsning shakli va mazmuni ta’sirchanligi, samaradorligi, baholash mezonlari ham o‘zgardi. Dars samaradorligini oshirish mezonlaridan biri-darslarda interfaol usullarni qo‘llashdan iborat.

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyatda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallahsga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi,

shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Sinkveyn”, “BBB”, “Beshinchisi ortiqcha”, “6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, FSMU, “Kichik guruhlarda ishslash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag” “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan asosiy fanlar bular ona tili, o‘qish va matematika darslaridir. Biz bu darslarning yanada samaradorligini oshirish, fanlarni o‘qitishning ilg‘or texnologiyalarni yanada takomillashtirish maqsadida jahon tajribasida sinalayotgan usullardan to‘laqonli foydalanishga erishishimiz zarur.

O‘qituvchining turli fanlarni o‘qitishdan maqsadi o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun namunadir. O‘quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo‘lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e’tibor berih zarur. Bolalar nutqini rivojlantirishda o‘qish va ona tili fanining ahamiyati katta. Shuning uchun “O‘qish kitobi” da “Ertaklar-yaxshilikka yetaklar” bo‘limi berilgan. Unga kiritilgan ertaklar bolalarni obod-axloqqa o‘rgatishi, ma’naviy juhatdan rivojlanishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Masalan, “Ur to‘qmoq” ertagidagi dehqon va boy obrazlari o‘quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosl qilai. Maqtanchoqlik,adolatchilik, ochko‘zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do‘stga mehribon bo‘lish, rostgo‘ylik insonning ma’naviy yuksalishga yordam berishi uqtiriladi.

Bolalarda ikkita jadval tuzishga tayyorlanishlari aytildi. Birga yaxshilikka doir so‘zlar, ikkinchisiga esa uning aksi bo‘lgan so‘zlar yozish ta’kidlanadi. O‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdagi bolalar mehribon, saxiy, shirinso‘z, yoqimli, go‘zal, chiroyli, mehnatkash, e’tiborli, kamtar, aqli, bilag‘on kabi so‘zlar topsalar, ikkinchi guruh bolalar yomon, xunuk, qo‘pol, yolg‘onchi, ayyor, to‘polonchi, tartibsiz, xasis, qizg‘anchiq kabi so‘zlarni aytadilar.

Dars mashhg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda fanlar

ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi. Quyida o‘quvchilar savodxonligini oshirishga doir metod keltirib o‘tamiz.

“Videotopishmoq” metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televiedeniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi; o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi; jarayonlarning mohiyatini daftarlarga qayd etishadi; o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o‘z fikrmulohazalarini bildirishadi. Masalan, “Elektr jihozlari” (1-sinf), “Yil fasllari” (2-sinf) kabilar asosida o‘quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. Bu metodni 2-sinfda o‘quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo‘llash mumkin.

Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko‘rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so‘zlarni ifodalaydigan rasmlar ko‘rsatiladi. O‘quvchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarini daftarlariiga yozadilar. Bunda o‘quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi, so‘z boyligi oshadi. Og‘zaki va yozma savodxonligi oshadi. Bugungi kun o‘qituvchisi yangilikka intiluvchan, uni to‘g‘ri qabul qilib o‘z o‘quvchisiga yuksak darajada yetkaza olish zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o‘tkazishuchun avvalo o‘qituvchining o‘zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo‘lishi zarur. Shundagina bunday o‘qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi va unda eng oliy insoniy fazilatlarga ega yosh avlod buyuk kelajagimiz egalari hisoblanadi.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san’ati. T.:O‘qituvchi.1991.
- 2.Azizzoxjayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.-T.: TDPU. 2000.
- 3.Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. 2017.

4.G'ulomovaX., Yo'ldoshevaSh., MamatovaG., BoqiyevaH. Husnixat va uni o'qitishmetodikasi. -T.: TDPU, 2013

5.Ochilov, I. (2023). TARIX DARSLARIDA TAFAKKUR, KO'NIKMA VA MALAKALARNI HOSIL QILISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Наука и технология в современном мире, 2(16), 43-46

6. Ochilov, I. (2022). XALQARO TURIZM TARIXI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS GEOGRAFIK JIHATLARI. Science and innovation, 1(C6), 228-231.

7.Ochilov, I. (2022). SPECIFIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM. Science and Innovation, 1(6), 228-231.

8.Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR. IQRO, 2(2), 597-600.

9.Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. PEDAGOG, 5(6), 327-329.

10.Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.

11.Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.

12.Omongaldi o'g'li, O. I. (2022). QADIMGI XORAZM SIRLI QAL'ALARI. PEDAGOGS jurnali, 10(4), 182-185.

13.Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). O'RTA OSIYODA TARIXIY BILIMLARNING TARAQQIYOTI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 9-15.